

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>

**THE ROLE OF THE SOUTH ASIAN REGION IN WORLD POLITICS**

Khamidulla Khudoyorov

*Import and export department of Gold Moon Tashkent LLC
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: “One Belt, One Road”, “China-Pakistan Economic Corridor (CPEC)”, “Human Cloud” and “Big Data”, “Kashmir issue”, “hydro-conflicts”.

Received: 03.10.24

Accepted: 05.11.24

Published: 07.11.24

Abstract: This article examines the geostrategic characteristics of the South Asian region, existing problems in the region and their origins, and the competition between India and Pakistan. Additionally, the article analyzes factors contributing to the significant increase in South Asia's importance in international relations, as well as the region's role in ensuring global security. Furthermore, the strategic influence of the world's leading countries in the South Asian region has been examined.

JAHON SIYOSATIDA JANUBIY OSIYO MINTAQASINING O'RNI

Xamidulla Xudoyorov

*Gold Moon Tashkent MCHJ import taminot bo 'limi
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: “One belt – one road”, “Xitoy Pokiston Iqtisodiy Koridorini (XPIK)”, “Human Cloud” va “Big Data”, “Kashmir muammosi”, “gidromojarolar”.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Janubiy Osiyo mintaqasining gesostrategik xususiyatlari, mintaqadagi mavjud muammolar va ularning kelib chiqishi, Hindiston va Pokiston ortasidagi raqobat haqida so'z boradi. Bundan tashqari, Janubiy Osiyoning xalqaro munosabatlardagi ahamiyati sezilarli darajada oshishiga xizmat qiluvchi omillar bilan bir qatorda mintaqani xalqaro xavsizlikni ta'minlashdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, dunyoning yetakchi mamlakatlarining Janubiy Osiyo mintaqasidagi strategik ta'siri o'rganilgan.

РОЛЬ РЕГИОНА ЮЖНОЙ АЗИИ В МИРОВОЙ ПОЛИТИКЕ

Хамидулла Худоёрөв

*Отдел импорта и экспорта ООО Gold Moon Ташкент
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «One belt - one road,» «Китайский Пакистанский экономический коридор (КПЭК)», «Human Cloud» и «Big Data», «Кашмирская проблема», «гидроконфликты».

Аннотация: В данной статье рассматриваются геостратегические особенности Южноазиатского региона, существующие в нем проблемы и их происхождение, а также соперничество между Индией и Пакистаном. Кроме того, наряду с факторами, способствующими значительному повышению роли Южной Азии в международных отношениях, анализируется значение региона в обеспечении международной безопасности. Также было изучено стратегическое влияние ведущих стран мира в регионе Южной Азии.

KIRISH. Janubiy Osiyo mintaqasi yildan yilga iqtisodiy o'sish jadallahib bormoqda. Biroq Janubiy Osiyo mintaqasi o'zining iqtisodiy rivojlanishi va madaniy boy tarixi bilan birgalikda jahoning XXI asrdagi turli ko'rinishdagi nizolarga va birq qator global muammolarga boy mintaqalaridan biri sanaladi.

Janubiy Osiyo mintaqasining jahon siyosatida tutgan roli mutaxassislar tomonidan bir qator omillarga ko'ra katta ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Alovida ta'kidlash joizki, Janubiy Osiyo dunyodagi eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri bo'lgan Hind sivilizatsiyasining vatani bo'lib, bugungi kunda sayyoramizdagi eng zinch joylashgan mintaqalardan biri hisoblanadi. Etnik, til va siyosiy tarqoqlik tarixiga qaramay, subregion aholisi birlashgan ekanligi ham alovida e'tiborga molik jihatlardandir. Umumiy madaniy va axloqiy dunyoqarash bilan; Sanskrit, Prakrit va mintaqalaridagi qadimiy matn adabiyotining boyligi asosiy birlashtiruvchi omil hisoblanadi. Musiqa va raqs, marosim urf-odatlari, ibodat usullari va adabiy ideallar garchi mintaqaga asrlar davomida kaleydoskopik siyosiy naqshlarga bo'lingan bo'lsa ham butun Janubiy Osiyoda o'xshashdir.

ADABIYOTLAR TAHLILII VA METODLAR.

Maqolada Janubiy Osiyo mintaqasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o'rganuvchi olimlar va tadqiqotchilarining ilmiy ishlariga, tahliliy materiallari va xulosalariga, shuningdek, ingliz tilidagi ma'lumotlar, davriy nashrlar va internet manbaalariga alovida e'tibor qaratildi. Adabiyotlar tahlilida Mintaqaning jahon siyosatiga, xalqaro xavfsizlik ta'minlash jarayoniga ta'siri o'rganib chiqildi. Maqolada tarixiylik, event, kontent, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Tabiiy resurslarga boy va dunyo okeaniga chiqishning keng imkoniyatlari mavjud ekanligi mintaqani xalqaro maydonda olmos kabi jilovlantiradi. Hozirda Janubiy Osiyo mintaqasining geografik tuzilishi sakkiz davlatdan iborat bo‘lib quyidagilar: Afg‘oniston, Bangladesh, Butan, Maldiv Respublikasi, Nepal, Pokiston, Hindiston va Shri Lanka. Geografik jihatdan mintaqaga Eronning sharqiy qismi, Xitoyning Tibet muxtor o‘lkasi tegishlidir. Janubiy Osiyoda dunyo aholisining beshdan bir qismi joylashgan va eng aholi zinch mintaqa sanaladi. Mintaqadagi eng katta kuch bo‘lgan Hindiston subkontinetni 4,4 million km.kv. hududga ega bo‘lib, Osiyoning 10%, jahoning 3,3% hududini tashkil etadi. Osiyoning 34% aholisi mazkur mintaqada istiqomat qiladi.

Janubiy Osiyo Osiyoning yuksalishi va uning xalqaro tizimdagи mavqeи uchun muhim bo‘g‘indir. 1,8 milliard aholiga ega bo‘lib, u butun dunyo insoniyatining to‘rtadan bir qismini tashkil qiladi. Bu yalpi o‘rtacha 7,1% yalpi ichki mahsulot o‘sishi bilan dunyodagi eng tez rivojlanayotgan iqtisodlardan biridir. Bu yerda juda yosh aholi yashaydi, Janubiy Osiyo aholisining 40% yoshlar toifasiga kiradi. Shuning uchun u nafaqat iqtisodiy jihatdan jonli mintaqa, balki kelajakdagi Osiyo uchun o’sishning dvigateli ham bo‘ladi. Janubiy Osiyo davlatlari siyosiy taraqqiyotning turli bosqichlarida, biroq umuman olganda, Janubiy Osiyoning sakkizta barcha davlati vaqtı-vaqtı bilan demokratik mashqlardan o‘tadi. Mintaqaning ham o‘ziga xos muammolar bor. Garchi u dunyodagi eng tez rivojlanayotgan iqtisodiy mintaqalardan biri bo‘lsa ham, dunyodagi kambag‘allarning 40 foizini tashkil etishi paradoksdir, chunki ularning ko‘philigi o‘ta kambag‘al toifaga kiradi. Mintaqada xavfsizlikka oid bir qator noan’anaviy va an’anaviy muammolar mavjud. Noan’anaviy maydonda oziq-ovqat xavfsizligi, sog‘liqni saqlash xavfsizligi va boshqalar Janubiy Osiyo xalqlarini doimiy ravishda qiyinlashtiradi.

Mintaqada bir qator hozirga qadar o‘z yechimini topmagan muammolar muvjud:

- Kashmir muammosi;
- Dyurand chizig‘ini tan olish masalasi;
- Yadro qurollari va texnologiyalarining yoyilish muammosi;
- Keng ko‘lamli etnik-diniy nizolar;
- Suv resurslaridan foydalanishdagi nizolar;
- Qashshoqlik, ocharchilik va savodsizlik holatining saqlanib qolishi va boshqalar.

Aholisi bo‘yicha dunyoning ikkinchi davlati bo‘lgan Hindiston va Pokiston o‘rtasida yarim asrdan ortiq vaqtdan beri davom etayotgan manfaatlar to‘qnashuvi tufayli Janubiy Osiyo jahon siyosatining markazida turibdi[1]. Chunki, Janubiy Osiyo mintaqasining xalqaro munosabatlardagi rolini o‘rganar ekanmiz, 1960-yillarning oxirigacha bu faqat Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi raqobat sharoitida kuzatilgan. Ammo bugungi kunda ayrim mutaxasislar tomonidan Kashmir muammosi Hindiston va Pakiston Islom Respublikasi o‘rtasidagi mojaro aslida Janubiy Osiyoning

jahonda ahamiyatini kamaytirdi deb ta'kidlashadi. Biroq, maskur fikrlarni to'laqonli qo'llab-quvvatlashga asoslar yetarli emas naznimizda. Chunki, bugungi kunda Kashmir muammosining xalqaro xavsizlikni ta'minlashda tutgan roli juda katta ahamiyat kasb etadi. Musulmon davlatlari orasida yagona yadro quroliga ega Pokistonning Hindiston bilan raqobati bu faqat ikki davlat o'rtaqidagi qarama-qarshilik emas, balki butun Janubiy Osiyo mintaqasini ham xavfsizligiga, rivojlanishiga katta ta'sirini o'tkazib keladi. Bundan tashqari, masalaning eng dolzarb jihatlaridan biri shundaki, bu muammoga Xitoy Xalq Respublikasining ham aralashuvidir. Ya'ni mintaqada uchta yadro quroliga ega bo'lgan davlatlarning raqobatlashuvi butun dunyoni yadro urushidan holi emasligini ko'rsatib beradi va o'z navbatida butun dunyo hamjamiyatini sergak tortishga chairadi.

Yana bir e'tiborga molik jihat shuki, Janubiy Osiyo mintaqasidagi qolgan davlatlar ko'p sohalarda Pokiston yoki Hindiston bilan uzviy bo'g'liqdir. Bunda diniy masala ham o'z o'rniga egadir.

Uzoq tarixga nazar tashlasak, Janubiy Osyoning jahon syosatida tutgan roli S.B.Koenning geosiyosiy qarashlarida quyidagicha aks etgan. Ya'ni,sovuq urush (1960-yillarning oxiridan 1989-yilgacha bo'lgan davr) Janubiy Osiyoda ikki qutbli tizim rivojlanishiga olib kelganligini ta'kidlanadi. Bunda, ikki qutubli dunyo tartiboti hukm surgan davrda dunyoning aksar davlatlari singari Hindiston va Pokiston ham SSSR va Qo'shma Shtatlar tomonida bo'lishga majbur bo'ladi. Hindiston SSSR bilan aloqalarni (1971-yilda Nyu-Dehli va Moskva o'rtaqidagi siyosiy-harbiy ittifoq bilan tasdiqlangan) mustahkamlagan bo'lsa, va Pokiston sovuq urush davrida AQSh tomonida bo'ladi. Biroq, bu tizim faqat mintaqaning periferik xarakterini mustahkamladi. Buning sabablari quyidagicha edi:

Birinchidan, yirik davlatlar Janubiy Osiyodagi status-kvoni saqlab qolishdan manfaatdor edilar.

Ikkinchidan, ular Janubiy Osiyoni Osiyo-Tinch okeani mintaqasi xavfsizlik tizimining ajralmas qismi sifatida ko'rishmadi.

Uchinchidan, Dunyoning yetakchi kuch markazlari Tinch okeani va Sharqiy Osiyoda raqobatlashishga e'tibor qaratdilar;

To'rtinchidan, Hindiston Janubiy Osiyo mintaqasining asosiy davlati sifatida Osiyo qit'asida xavfsizlik va iqtisodiy jihatdan asosiy rol o'ynamagan; uning tashqi va xavfsizlik siyosati qisman Pokiston va Xitoy omillari tufayli Hindiston yarimoroli bilan cheklangan edi. Hindiston Osiyo-Tinch okeani mintaqasida yirik davlat rolini o'ynamadi; Sharqiy Osiyoda samarali siyosat olib bormadi.

Beshinchidan, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo davlatlaridan farqli o'larq, Janubiy Osiyo iqtisodiyoti bir-biri bilan va Sharqiy Osyoning boshqa mamlakatlari bilan moliyaviy va savdo aloqalari bilan bog'lanmagan.

Sovuq urush tugaganidan keyin Janubiy Osiyoning xalqaro munosabatlardagi ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Ushbu o'sishga olib kelgan quyidagi omillarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- Hindistonning xalqaro munosabatlardagi roli va mavqeい ortib borayotgani, masalan, AQSh bilan munosabatlarning mustahkamlanishi, ularning faolroq va pragmatik mintaqaviy strategiyasi shundan dalolat beradi.
- Janubiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo va Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy, siyosiy va strategik aloqalarni rivojlantirish asosida;
- Xitoyning Janubiy Osiyo mamlakatlariga nisbatan faolroq siyosati;
- Afg'onistondagi urush va Pokiston va Afg'oniston o'rtaisdagi munosabatlar;
- 2001-yildan keyin AQSh va boshqa G'arb davlatlarining Afg'onistonga aralashuvi;
- Hindiston va Pokiston yadroviy qurolga ega bo'lishi;
- 2006-yilda Hindiston va Amerika Qo'shma Shtatlari fuqarolik yadroviy bitimining imzolanishi, bu aslida Hindistonning yadroviy davlat sifatida tan olinishini anglatardi[2].

Yana bir mintaqaning xalqaro maydondagi ahamiyatini oshiruvchi omil bu –

mintaqani xalqaro xavsizlikni ta'minlashdagi roldir. Barchamizga yaxshi ma'lumki, Janubiy Osiyoda ikki qudratli davlatdan tashqari boshqa davlatlarda siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik nuqtai nazardan vaziyat ancha jiddiydir. Ushbu vaziyat bir qator terroristik guruhlar, jinoyatchilar va narkobaronlar uchun boshipana bo'lib kelayotgani ham alohida e'tiborga molikdir. Misol uchun "Tolibon" harakatining, "Al-Qoida" terroristik guruh kabi boshqa diniy-ekstrimistik guruhlarni ushbu mintaqada faoliyat olib borishi nafaqat qo'shni mintaqalarga balki, dunyoning istalgan burchagida xavf keltirib chiqarishga qodir ekanligini biz tarixiy voqeа va hodisalardan guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu borada Qo'shma Shtatlarning mazkur mintaqada olib borgan va bugungi kunda olib borayotgan siyosatini tahlil qilish orqali masalani dolzarbligini aniqlash mumkin. AQShning mintaqaga nisbatan siyosati, qiziqishi uzoq vaqt dan beri noaniq va reaktiv bo'lib kelgan bo'lsa-da, 11-sentabr voqealari rasmiy Washington hukumatini dunyoning eng beqaror va aholi gavjum mintaqalaridan biriga yetaricha e'tibor berish zarur ekanligi hamda kundalik beqarorlik, takroriy xalqaro inqirozlar, katta va kichik urushlar va surunkali holatlar uchun retsept ekanligini tushinib yetdi va butun dunyo hamjamiyatini bundan ogohlantirdi. Ushbu hodisa orqali mintaqaning ko'p qirralarini o'rganar ekanmiz AQShning Afg'onistonga nisbatan siyosatini va Bangladesh va Pokistonning demokratik davlatlar sifatida sezilarli tajribaga ega bo'lgan bir nechta islom davlatlaridan ikkitasi ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Janubiy Osiyo mintaqasidagi xalqaro munosabatlar faqat Hindiston va Pokiston o'rtaisdagi raqobat bilan cheklanib qolmaydi. Ular, shuningdek, Xitoy va Qo'shma Shtatlarning mintaqada

tobora faollashib borayotgan strategiyalari nuqtai nazaridan ham qabul qilinishi kerak, chunki bu belgilovchi omillar Janubiy Osiyo mamlakatlari, asosan Hindiston qurolli kuchlarini modernizatsiya qilish uchun sabab bo‘lgan. 1989-yildan keyin Janubiy Osiyo mintaqasi Osiyoda vujudga kelgan yangi xalqaro tartibning muhim elementiga aylanib bormoqda. Janubiy Osiyo xalqaro munosabatlarda va xalqaro munosabatlarni o‘rganishda endi chegaralangan emas (Hind okeani va Tinch okeani, G‘arbiy va Sharqi Osiyo o‘rtasidagi ko‘prik sifatida Janubiy Osiyo Osiyoning yangi xavfsizlik arxitekturasining asosiy elementiga aylanmoqda.

Ta’kidlash joizki, mintaqada energiya tanqisligi mavjudligi asosan import qilinadigan yoqilg‘iga bog‘liq. Agar hozirgi rivojlanish sur’ati barqaror bo‘lishi uchun mintaqqa o‘z o‘sishini ta’minalash uchun muqobil va qayta tiklanadigan energiya manbalarini topishi kerak. Janubiy Osiyo toza va yashil energiya kelajagini topishi kerak. Janubiy Osiyo ham iqlim o‘zgarishi muammolari nuqtai nazaridan eng zaif mintaqalardan biridir. Dengiz sathining ko‘tarilishi mintaqaning qirg‘oqbo‘yi hududlarini, ayniqsa Bangladesh va Hindistonni suv ostida qoldiradi, bu esa odamlarning ommaviy migratsiyasiga olib keladigan keng ko‘lamli iqlim qochqinlarini keltirib chiqaradi. Mintaqada eng kuchli daryolar mavjud bo‘lsa-da, yaqin kelajakda suv tanqisligi mintaqasiga aylanishi mumkin. Gidrosiyosat muammolari va gidromojarolar potentsiali juda yuqori, chunki mumkin bo‘lgan inqiroz nuqtalari Xitoy va Hindiston o‘rtasidagi Brahmaputra daryosi ustidagi suv mojarosi, Pokiston va Hindiston o‘rtasidagi Hind suvi shartnomasining mo‘rtligi va suvlarni bo‘lishish bo‘yicha kelishmovchiliklardir. Hindiston va uning kichik qo‘shnilari o‘rtasidagi transchegaraviy daryolar. Janubiy Osiyo, shuningdek, ikki yadroviy davlat - Hindiston va Pokistonning vatani bo‘lib, ular ham o‘tmishdagi mojarolar tarixiga ega. Yadro qurliga ega bu ikki davlat o‘rtasidagi hal qilib bo‘lmaydigan tortishuvlar va keskinlik mintaqqa tinchligi va barqarorligiga noaniqlik soyasini solmoqda. Ushbu xavfsizlik landshafti fonida Janubiy Osiyoda xavfsizlik arxitekturasi mavjud emas. Hozirda uning hamkorlik uchun mavjud mintaqaviy platformasi - SAARC ham butunlay ishlamaydigan holatda. Shuning uchun Janubiy Osiyo mintaqaviyligi jarayoni vaqtincha to‘xtab qoldi[3].

XXI asrda Janubiy Osiyoning global tartibdagi o‘rni mintaqqa xalqning iqtisodiy farovonligini qanchalik tez o‘zgartirishi bilan belgilanadi. Iqtisodiy tendentsiyadan kelib chiqqan holda, Janubiy Osiyo 2030-yilga kelib ancha boy iqtisodiyotga aylanadi. Bu Hindistonning Yaponiya yalpi ichki mahsulotidan oshib ketishi bilan ham mos kelishi mumkin. Bu Bill Geyts “2035-yilga kelib kambag‘al mamlakatlar deyarli qolmaydi” va eng qashshoq mamlakatlarda bolalar o‘limi darajasi AQSh va Buyuk Britaniyadagi kabi bir xil darajaga tushadi. Bu vaqtga kelib, Bangladesh dunyoning eng kuchli yigirmata iqtisodiga kirishi kutilmoqda. Pokistonda umidlar puchga chiqqan bo‘lsa-da, u hali ham boshqa tongga umid bog‘laydi. Shri-Lankaning Janubiy Osiyoning Singapuri sifatida paydo bo‘lishi imkoniyatlarini inkor etib bo‘lmaydi. Xuddi shunday, Myanma o‘zining ulkan tabiiy

resurslari va ulardan to‘g‘ri foydalanishi bilan mintaqaviy istiqbollarni yanada oshirishi kerak. Biroq, Janubiy Osiyo uchun eng katta muammo mintaqa ichidagi va tashqarisidagi iqtisodiyotlarda nisbiy raqobatbardoshlik bilan ushbu darajaga erishish bo‘ladi.

Ammo, ayrim ekspertlar fikricha mintaqadagi iqtisodiy rivojlanishda qator kamchiliklrga yo‘l qo‘ymoqda. Misol uchun, **Shahedul Anam Khanning qarashicha:** Janubiy Osiyo iqtisodlari ishchilarimiz uchun yetarlicha ish o‘rinlarini yarata olmadi. Endi yaqinlashib kelayotgan yana bir muammo yaqin kelajakda vaziyatni yanada og‘irlashtiradi – “Human Cloud” va “Big Data” masalasi. Ko‘p ish o‘rinlari autsorsing bo‘ladi hamda dunyoning olis burchagida o‘tirgan odamlar o‘z xonalaridan suhbatlashadilar. Kompyuterlar va aqlli mashinalar ko‘plab insoniy ishlarni egallaydi. Bular biz duch kelishi mumkin bo‘lgan istiqbollardir. Bu darhol bo‘ladimi yoki yo‘qmi, muhim emas, biz o‘zgaruvchan dunyoda bu hodisadan xabardor bo‘lishimiz kerak, chunki bizning Janubiy Osiyo o‘zgarishda davom etmoqda. O‘zgarish - bu doimiy jarayon va menimcha, o‘zgarish davom etmoqda, insoniy munosabatlar muayyan hayot tarzida muxrlangan. Menimcha, eng katta o‘zgarish bu biz yashayotgan va ilgari hech qachon bo‘lmagan bir qutbli dunyo. Bu bir tomonlama emas, balki miqyosli uchburchak, chunki tomonlarning hech biri teng emas. Amerika Qo‘shma Shtatlari bu uchburchakda kattaroq qo‘lga ega. Bu dunyodagi yagona kuch emas, balki shubhasiz hukmron kuchdir. Ushbu sabablarga ko‘ra xalqaro tartibning diqqat markazi G‘arbdan Hind-Tinch okeaniga o‘zgardi. Janubiy Osiyoda ba’zi chaqnash nuqtalari mavjud. Taxminlarga ko‘ra, Osiyo yaqin kelajakda dunyoning ikki yirik iqtisodiyotiga ega bo‘ladi - Hindiston va Xitoy. YIM o‘sishi bo‘yicha Xitoy eng tez o‘sish bo‘ldi. Hind-Tinch okeani siyosati Xitoyning butun dunyo bo‘ylab izlarini kengaytirishi bilan jonlandi. Hind-Tinch okeani strategiyasi Amerikaning ushbu mintaqadagi siyosatini belgilaydi. Iqtisodiy taraqqiyotimiz uchun Xitoy kerak. Bizga siyosiy yordam uchun Hindiston kerak. Shunday ekan, biz ikkala davlatni ham muvozanatlashimiz kerak. Bizda tashqi siyosatini oldindan aytib bo‘lmaydigan hukmron dunyo davlati bor. Olimlar ta’kidlashicha, AQSh tashqi siyosati hech qanday siyosatning yo‘qligi bilan seziladi”[4].

Mazkur mintaqaning yana bir o‘ziga xos jihat shuki, bugungi kunda dunyoning yetakchi davlatlarining raqobatiga sabab bo‘layotgan ulkan resurga aylanmoqda. Jumladan, Xitoy va Qo‘shma Shtatlarning savdo urushida mazkur mintaqaning ahamiyat yuqori hisoblanadi. Ma’lumki, Xitoyning “One belt – one road” (bir kamar – bir yo‘l) loyihasining bir tarmog‘i Janubiy Osiyo mintaqasida o‘tishi rejalashtirilgan[5]. “Bir belbog‘ – bir yo‘l” loyihasi uch qit’ani, Osiyo, Yevropa va Afrikani qamrab olishni rejalashtirmoqda. Uchta asosiy yo‘nalish:

- 1) Xitoy, Markaziy Osiyo, Rossiya, Yevropaga chiqish yo‘nalishi (Baltiya dengizi);
- 2) Xitoy, Markaziy Osiyo, G‘arbiy Osiyo, Fors ko‘rfazi va O‘rta dengizga chiqish yo‘nalishi;
- 3) Xitoy, Janubi-sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo, Hindiston okeaniga chiqish yo‘nalishi.

Har bir marshrutning o‘ziga xosligi bilan farq qiladigan bo‘lsa-da, ular umumiy boshlang‘ich nuqtasi (Xitoy) va yagona dastur vazifasi - keng qamrovli, ko‘p qatlamlili, integratsiyalashgan hamkorlik tarmog‘ining qurilishi bilan birlashtirilgan.

Yuqoridagi omillar sabab Xitoyning Janubiy Osiyo mintaqasidagi strategik ta’siri kuchaymoqda. Hindiston, Isroil va AQSh bilan katta sarmoyaga ega va qo‘shnichilik siyosati nuqtai nazaridan Xitoy mintaqadagi yagona hukmron kuchga qarshi kurashmoqda. AQSh Xitoyning mintaqadagi strategik geoiqtisodiy nufuziga qarshi turish uchun umuman Janubiy Osiyodagi geostrategik hamkorligini oshirdi. Janubiy Osiyoning alohida davlatlari, Pokistondan tashqari, geosiyosiy ma’noda Hindiston ta’siriga tushib qolgan. Infratuzilmani rivojlantirish nuqtai nazaridan janubiy osiyoliklar hali ham Xitoyga qaram. Hindistonning ashaddiy raqibini, xususan Pokistonni chetlab o‘tish tendentsiyasi mavjud.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, Janubiy Osiyo orqali o‘tadigan yo‘nalishlarda Hindiston Xitoyning “Bir belbog‘ – bir yo‘l” loyihasini qo‘llab quvvatlamasligini 2017-yilning may oyida bo‘lib o‘tgan “Bir belbog‘ – bir yo‘l” forumida ishtirok etishni inkor qilish orqali bildirib qo‘ydi[6]. Garchi Xitoy bu yo‘nalishda Xitoy Pokiston Iqtisodiy Koridorini (XPIK) tashkil etib, keng ko‘lamli ishni amalga oshirgan bo‘lsa ham, Pokiston va Hindiston o‘rtasida doimiy kurashga sabab bo‘lib keluvchi Kashmir muommosi, Balujistondagi millatchilarining XPIK tomonidan amalga oshirilayotgan viloyatdagi bunday o‘zgarishlar natijasida mahalliy aholi tabiiy resurslarni “yo‘qotish” ga olib kelishi mumkinligidan xavotirga tushib, XPIK tomonidan ko‘zda tutilgan keng ko‘lamli rivojlanish loyihalariga qarshi chiqishlari, XPIKning kaliti hisoblanadigan Karachida sodir etilayotgan so‘ngi yillardagi jangarilarning hujumlari va mazhabchilik harakatlari Xitoy uchun katta muommolar keltirib chiqaradi[7]. “Bir belbog‘ – bir yo‘l” loyihasining amalga oshirishida Xitoy garchi bir necha yo‘nalishlarni ishlab chiqqan bo‘lsa ham, Janubiy Osiyo mintaqasi “Bir belbog‘ – bir yo‘l” loyihaning amalga oshirishida muhim o‘rin kasab etadi. Shuningdek, bugungi kunda ushbu mintaqada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamdagisi ishlar ham Xitoyning loyihani amalga oshirishda Janubiy Osiyoning roli naqadar muhim va katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib beradi.

XULOSA.

Xulosa o‘rnida qayd etish mumkinki, mintaqaning qulay geografik joylashuvi qulay iqtisodiy rivojlanishga ko‘mak beradi va xalqaro tijoratning muhim qismi bo‘lib, eng arzon transport yo’llariga ega hisoblanadi. Shuningdek, mintaqada joylashgan davlatlarning harbiy salohiyati va aholi soni jihatdan juda ham katta resurslarga ega. Birgin Pokiston Islom Respublikasining yadro quroliga ega ekanligi musulmon olamida yagon bunday qurol mavjudligi ham muhim omildir. Bundan tashqari, xavfsizlik nuqtai nazaridan mintaqada bo‘layotgan har qanday voqealari va hodisalar butun dunyo hamjamiyati uchun birdek muhim ahamiyatga ega. 11-sentabr voqealari misolida yatish mumkindir.

Masalaning yana bir muhim jihatni Janubiy Osiyoning geosiyosiy mintaqasi sifatida shakllanishi yetakchi davlatlarning manfaatlari to‘qnashuv va geosiyosiy raqobat maydoniga aylantirdi. Ikki mintaqaning bog‘lanish nuqtasida “afg‘on muammosi”ning mavjudligi mintaqaviy xavfsizlik tizimi uchun katta xavf manbasiga aylandi. Kuch markazlari o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi mintaqasi davlatlarining o‘z xavfsizlik siyosati qayta shakllantirishga yo‘naltirmoqda. Bundan tashqari, mintaqadagi asosiy kamchilik sifatida mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy jihatdan tafovutni yuqori ekanligi (ya’ni mintaqasi davlatlarining rivojlanishi bir hil emas. Shrilanka, Nepal Maldiv kabi davlatlar ko‘p sohalarda Hindiston va Pokiston bilan hisolashishga majbur bo‘ladi) hamda mintaqada konfliktlarni keltirib chiqaruvchi omillarning ko‘pligini aytishimiz mumkin. Bulardan eng asosiysi diniy va hududiy konfliktlar bo‘lib mintaqasi xavfsizligida juda katta ta’sirga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Air Marshal Anil Chopra. China-Pakistan Economic Corridor: Implications And Options. (30 September, 2016). <https://www.thecitizen.in/index.php/en/NewsDetail/index/4/8855/>
2. Anu Anwar. South Asia aAnd China’s Belt and Road Initiative: Security Implications and ways forward. – P. 163.
3. Darshana M. Baruah. India’s Answer to the Belt and Road: A Road Map for South Asia/Carnegie endowment for international peace. August. 2018. – P.3.
4. Jakub Zajaczkowski. The region of South Asia in International Relations – regional analysis approach. Institute of International Relations, University of Warsaw. 2015. –P. 68.
5. Maj Gen and A. Muniruzzaman. South Asia in a changing world. (Novembr 19, 2019). <https://www.thedailystar.net/law-our-rights/news/south-asia-changing-world-1829134>
6. Shahedul Anam Khan. South Asia in a changing world. (Novembr 19, 2019). <https://www.thedailystar.net/law-our-rights/news/south-asia-changing-world-1829134>
7. В.Я. Белокреницкий, В.Н. Москаленко, Т.Л. Шаумян. Южная Азия в мировой политике. – М.: Международни отношения, 2003. – С. 38.